	Mashg'ulot paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish	
	Turli sharoitlarda (kuchli oqim, chuqur suv, tunda) xavfsiz qutqaruv texnikalarini o'rgata olish	
	Bilimlar:	
	Jabrlanganni topish, suvdan chiqarish, transportirovka qilish qutqaruvining turli texnikalari	
	Qutqarish uchun zarur jihozlar va ulardan foydalanish usullari	
	Suvda har xil sharoitlarda harakatlanish qoidalari	
	Suvda qutqarish jarayonida texnik va shaxsiy xavfsizlik qoidalari	
	Qutqarish asbob-uskunalari, ularning tuzilishi va texnik xususiyatlari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Mashg'ulotlar vaqtida har bir ishtirokchining hayot va sog'lig'ini muhofaza qilish mas'uliyati
		2. Texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilinishiga javobgarlik
		3. Qutqaruvchilarning holatiga qarab tez va oqilona qarorlar qabul qilish
4. Yuqori rahbariyat ko'rsatmasini kutmasdan, shaxsiy tarkib xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tezkor qarorlar qabul qilish		
5. Mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun tashabbus ko'rsatish va yangi o'rgatish usullarini qo'llash		
6. Tarkibdagi har bir shaxsning faolligini oshirish uchun rahbarlik qilish		
	Mehnat harakatlari:	
	1. Suv ostidagi qidiruv-qutqaruv ishlarini rejalashtirish, vazifalarni belgilash	

D2.4- G'avvoslik ishlariga rahbarlik qilish hamda xavfsizlikni ta'minlovchi g'avvos sifatida ishlarni olib borish	D2.01.4- Suv ostida amalga oshiriladigan qidiruv, qutqaruv va texnik ishlarga rahbarlik qilish	2. Qutqaruvchilarning texnik va jismoniy tayyorgarligini oshirib borish
		3. Zarur jihoz va asbob-uskunalarini tayyorlash va nazorat qilish
		4. Har bir g'avvosning xavfsizligini ta'minlash, xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishini nazorat qilish
		5. Suv ostida jabrlanganlarni topish va qutqarish ishlarini tashkil etish
		6. Suv ostidagi texnik vazifalar, jihozlarning holati va ishlashini nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Suv ostida harakatlanish va maxsus g'avvoslik anjomlaridan foydalanish
		Turli suv osti sharoitlarida g'avvoslik qilish texnikasiga ega bo'lish
		Jabrlanganlarni suv ostida topish, ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish
		Qutqaruv jarayonini tashkil etish va uni boshqarish
		Suv osti texnik uskunalarini (g'avvoslik jihozlari, kislorod ballonlar, qurilmalar) ishlatish va ularning holatini tekshirish
		Bilimlar:
		G'avvoslik anjomlari va maxsus nafas olish apparatlarining tuzilishi, texnik tavsifi va ishlash mexanizmlari
		Suv osti sharoitlarida g'avvoslik qilish qoidalari
	Jabrlanganlarni suv ostida topish, ularga birinchi yordam ko'rsatish, evakuatsiya qilish usullari	
	Qutqaruv ishlarini tashkil etish va boshqarish prinsiplari	
	Jamoani boshqarish, vazifalarni taqsimlash va nazorat qilish talablari	
	Suv osti ishlarida xavfsizlik qoidalari, favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash usullari	
	D2.02.4- Ehtiyoj tug'ilganda g'avvos sifatida suv ostiga tushish va xavfsizlikni ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Maxsus g'avvoslik kiyimi va uskunalarini to'g'ri kiyish va tekshirish
2. Suvga tushishdan oldin aloqa tizimi va ehtiyot choralarni tekshirish		
3. Suv ostida harakatlanishda texnik usullardan foydalanish		
4. Suv ostidagi muhitni baholash va xatarlarni aniqlash		
5. Qutqarilayotgan shaxs(lar)ga yordam berish va ularni xavfsiz ravishda suv ustiga olib chiqish		
6. Har bir g'avvosning harakatini nazorat qilish		

		7. Aloqa (signallar) tizimi orqali doimiy bog'lanishni ta'minlash
		8. Qutqarish operatsiyasi tugagandan so'ng g'avvoslarning salomatligini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Suv ostida yo'nalishni aniqlash, xavfsiz harakatlanish hamda g'avvoslik uskunalaridan to'g'ri foydalanish
		Suvda yuz bergan avariya, halokatlar yoki yo'qolgan shaxslarni izlash va ularni qutqarish bo'yicha amaliy harakatlarni bajarish
		Suv ostidagi transport vositalari, kemalar, to'siqlar yoki konstruksiyalarni tekshirish va ulardan odamlarni chiqarish
		Avariya vaziyatlarida tezkor qaror qabul qilish, himoya vositalaridan foydalanish hamda suv ostida qo'l ishoralari orqali muloqot qilish
		Bilimlar:
		Suzish fizikasi, harakatlanish usullari, tor joylarda harakat qilish qoidalari
		G'arq bo'layotgan yoki jarohatlanganlarni topish, uni olib chiqish va birinchi yordam ko'rsatish usullari
		G'avvoslik jarayonida xavfsizlik qoidalari
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ekologik normalar – g'avvoslik faoliyatida qo'llaniladigan huquqiy asoslari
		G'avvoslik uskunalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. G'avvoslik ishlarini bajarishda amaldagi qoidalar, yo'riqnomalar va xavfsizlik standartlariga qat'iy rioya qilish
		2. G'avvoslik jihozlarining (akvalang, nafas olish apparati, aloqa va sug'urtalash vositalari) sozligi va tayyorligini tekshirish javobgarligi
		3. Suv ostida ishlash vaqtida belgilangan vaqt, chuqurlik va harakat rejimiga amal qilish
		4. Vaziyatdan kelib chiqib, suv ostiga tushish zarurati va maqsadini mustaqil belgilash
		5. G'avvoslik ishlarining usuli, taktikasi va davomiyligini mustaqil tanlash
		6. Xavf darajasi oshganda ishlarni to'xtatish yoki suv ostidan chiqish haqida mustaqil qaror qabul qilish
		Mehnat harakatlari:
		1. Qutqaruv uchun zarur bo'lgan barcha asbob-uskunalarining texnik holatini o'rganish va ularning ishlash qobiliyatini tekshirish
		2. Qayiq, motorlar va boshqa texnikalarning har tomonlama holatini tekshirish

D3.4- Qutqaruv ishlarida qo'llaniladigan asbob-uskunalar, qayiqalar va boshqa texnikalarning holatini nazorat qilish	D3.01.4- Qutqaruv ishlarida ishlatiladigan asbob-uskunalar va texnikalar holatini muntazam tekshirish	3. Qayiqalarning xavfsiz foydalanishini ta'minlash uchun texnik xizmat ko'rsatish va profilaktika ishlarini tashkil etish
		4. Qutqaruvchilarni asbob-uskunalaridan to'g'ri va samarali foydalanish bo'yicha o'qitish va boshqarish
		Ko'nikmalar:
		Asbob-uskunalarining tuzilishi, mexanizmi va ishlash prinsiplari
		Qayiqalar va motorlarning asosiy texnik parametrlari va ularni tekshirish usullarini amalga oshirish
		Asbob-uskunalar va texnikalarning holatini vizual va texnik usullar bilan nazorat qilish
		Asbob-uskunalarining xavfsiz foydalanilishi uchun profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish
		Xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash va jamoani tayyorlash
		Bilimlar:
		Akvalanglar, kislorod ballonlari, regulyatorlar, niqoblar, manometrlar va boshqa g'avvoslik uskunalarining ishlash tartibi ularning tuzilishi va funksional imkoniyatlari
		Qayiqalar turlari, ularning muhandislik xususiyatlari, motorlar va boshqa texnika vositalarining ishlash tartibi
		Asbob-uskunalar va texnikadan xavfsiz foydalanish qoidalari
		Qutqaruv faoliyatida amal qiladigan standartlar hamda me'yoriy qoidalar
	D3.02.4- Xodimlarni mashg'ulotlar va amaliyotlarda jihozlardan foydalanishni nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Jihozlardan foydalanish bo'yicha mashg'ulotlarni va amaliyotlarni rejalashtirish va tashkil etish
		2. Xodimlarga jihozlardan to'g'ri va xavfsiz foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish
		3. Jihozlarni ishlatish qoidalari va texnik xavfsizlik talablarini tushuntirish ishlarini amalga oshirish
		4. Mashg'ulotlar va amaliyotlar vaqtida xodimlarning jihozlarni to'g'ri va samarali qo'llashini nazorat qilish
		5. Jihozlarning ish holatini va texnik holatini doimiy kuzatish
Ko'nikmalar:		
Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan jihozlarni to'g'ri tayyorlash va ularning holatini baholash		
Jihozlardan foydalanish jarayonida texnik nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish		

		Xodimlarning jihozlardan foydalanish jarayonini kuzatish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatishni tashkil etish	
		Mashg'ulotlarda xavfsizlikni ta'minlash va favqulodda vaziyatlarga tezkor munosabat ko'rsatish	
		Bilimlar:	
		Qutqaruv jihozlari va asbob-uskunalardan foydalanish qoidalari	
		Jihozlarni tayyorlash, ularning texnik holatini baholash va ekspluatatsiya qilish qoidalari	
		Qutqaruv jihozlarning profilaktikasi, ta'miri va texnik xizmat ko'rsatish tartiblari	
		Mashg'ulot va amaliyotlarda xavfsizlikni ta'minlash qoidalari	
		Favqulodda vaziyatlarda tez va oqilona harakat qilish usullari	
		Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Xodimlarning xavfsizligini ta'minlash
			2. Jihozlarning texnik holatiga mas'ullik
3. Qaror qabul qilishda mustaqillik			
4. Hisobot berish va axborot almashishda mas'ullik			
Texnik va/yoki texnologik talab:		<p>g'avvoslik apparati (kislrod balon, regulyator, nafas olish tizimi);</p> <p>g'avvoslik kostyumi (gidrokostyum) va issiqlikni saqlovchi kiyimlar;</p> <p>suv osti niqobi, nafas olish trubkasi va suzish panjalari (lastalar);</p> <p>suv osti aloqa vositalari va signal berish qurilmalari;</p> <p>suv osti yoritish vositalari (g'avvos fonari);</p> <p>qutqaruv arqonlari, karabinlar va ko'tarish moslamalari;</p> <p>qutqaruv qayiqdari va motorli katerlar;</p> <p>qidiruv uchun suv osti kameralari;</p> <p>birinchi tibbiy yordam jihozlari (tibbiy sumka, kislrod apparati);</p> <p>shaxsiy himoya vositalari (qo'lqop, kaska, himoya ko'zoynaklari).</p> <p>Suvda qutqaruv guruhi boshlig'i uchun texnik va texnologik talablar jihozlarni to'g'ri va xavfsiz foydalanish, ularning texnik holatini nazorat qilish hamda zamonaviy qutqaruv texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu talablar guruh faoliyatining samaradorligi va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi</p>	

Kasbning nomi:	Tog'da qutqaruv guruhi boshlig'i
Mashg'ulot nomining kodi:	33594
TMR bo'yicha malaka darajasi:	4
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish sohasida kamida 3-5 yillik amaliy tajriba talab etiladi. Bu nomzod favqulodda vaziyatlarni oldini olish, bartaraf etish va qutqaruv ishlarini olib borishda bevosita ishtirok etadi Favqulodda vaziyatlar boshqaruvi, yoki atrof muhit muhofazasi, yoki tegishli texnik va boshqaruv sohalarda maxsus ta'lim va sertifikatlarga ega bo'lish muhim
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan bo'lishi, erkak, yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va chidamli, jismonan sog'lom va harbiy xizmatni o'tagan bo'lishi talab qilinadi. Belgilangan qoidalarga rioya qilish. Mehnat intizomi va xizmatga sadoqat. Qutqaruv ishlarini tashkil etish va boshqarish tajribasiga ega bo'lish. Jamoani boshqarish va mas'uliyatli bo'lish. Hamkorlik qilish, jamoani bir maqsad atrofida birlashtirish. Qiyin, xavfli va uzoq muddatli qutqaruv ishlarida faol ishtirok etish. Qutqaruv texnikasi va vositalari bo'yicha bilimga ega bo'lish. Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularni bartaraf etish taktikalarini bilishlari. Jismoniy tayyorgarlik va chidamlilik (yugurish, shturm, yuk ko'tarish, suvda ishlash va boshqalar) ko'nikmalariga ega bo'lish. Notinch va xavfli sharoitlarda ham to'g'ri fikr yuritib, muammoni hal qilish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	O'rta professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	1)Umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim+norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba 2)Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan o'tishlari talab etiladi.
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	4	Qutqaruv guruhi boshlig'i
	4	Qidiruv-qutqaruv guruhi boshlig'i
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.4- Tog' sharoitida qidiruv-qutqaruv faoliyati bo'yicha guruh shaxsiy tayyorgarligini muntazam rivojlantirish	E1.01.4- Guruh a'zolarining tog' sharoitidagi qutqaruv ishlariga tayyorgarligini oshirish uchun nazariy va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tog' sharoiti xususiyatlarini (balandlik, iqlim, relyef, va xavfli zonalar) o'rgatish
		2. Guruh a'zolarining tayyorgarlik darajasini tahlil qilish (jismoniy, texnik, psixologik)
		3. Tog' sharoitiga mos qutqaruv ishlarini tashkil etish
		4. Arqonlar bilan tushish-chiqish va jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish
		5. Balandlikda ishlashda texnika xavfsizligini ta'minlash
		6. Ko'chkilarda (qor ko'chkisi, yer ko'chkisi, tosh ko'chkisi) harakat qilish
		7. Amaliyot mashg'ulotlarini tashkil etish
		8. Arqon, karabin, nosilka, aloqa vositalari, shaxsiy himoya vositalari va boshqa asbob-uskunalardan xavfsiz foydalanishni o'rgatish va nazorat qilish
		Ko'nikmalar:
		Guruh a'zolarini tog' sharoitidagi qutqaruv vazifalariga tayyorlash uchun mashg'ulotlarni rejalashtirish va bosqichma-bosqich o'tkazish
		Qutqaruv texnikasi va usullari bo'yicha arqonlar bilan ishlash, balandlikda harakat qilish, jordan tushirish, nosilkada evakuatsiya qilish
		Qor ko'chkisi, yer ko'chkisi, tosh ko'chkisida, muzli va qiya tog' sharoitidagi harakat usullarini amalda qo'llash
		Tog'li hududlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha nazorat va boshqaruvni amalga oshirish
		Bilimlar:
		Tog' sharoitida qutqaruv ishlarini tashkil etish qoidalari va usullari
		Favqulodda vaziyatlar turlari va tog'li hududlarda xavf omillari
		Qutqaruv jihozlari, asbob-anjomlar va tog' sharoitiga mos texnik vositalardan foydalanish tartibi
		Tog'li hududlarda ob-havo sharoiti o'zgarishlarini baholash talablari
Yuk ko'tarish, yugurish, muvozanat va chidamlilik mashg'ulotlarini tashkil qilish asoslari		

	E1.02.4- Tog' hududlarida qo'llaniladigan qutqaruv texnikasi va asbob- uskunalaridan xavfsiz foydalanish usullarini o'rgatish	Mehnat harakatlari:
		1. Guruh a'zolariga texnika va asbob-uskunalarni amaliyotda ishga tushirishni ko'rsatish
		2. Mashg'ulot davomida xodimlarning texnikadan foydalanishini nazorat qilish
		3. Mashg'ulot yakunida har bir a'zoning texnika bilan ishlash qobiliyatini baholash va tavsiyalar berish
		Ko'nikmalar:
		Guruh a'zolariga tog' sharoitida ishlatiladigan texnika va asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish
		Har bir uskuna va jihozning tuzilishi, ishlash prinsipi va funksiyalarini tushuntirish
		Favqulodda vaziyat sharoitida texnikani ishga tushirish, ulash va xavfsiz ishlatishni nazorat qilish
		Bilimlar:
		Asbob-uskunalar va qurilmalarning tuzilishi, ishlash prinsiplari va texnik xarakteristikalari
		Asboblarning xizmat muddati, xizmat ko'rsatish tartibi va nosozliklarni bartaraf etish qoidalari
		Shaxsiy himoya vositalaridan (kaska, ko'zoynak, qo'lqop, himoya kiyimi, respirator va h.k.) foydalanish qoidalari
		Favqulodda vaziyatlar va qutqaruv ishlariga oid amaldagi qonunlar, nizomlar, yo'riqnomalari
		Mas'uliyat va mustaqillik:
2. Xavfsizlikni ta'minlash uchun mas'uliyat		
3. Jismoniy va jangovar tayyorgarlikni nazorat qilish		
4. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda mustaqillik		
5. Qaror qabul qilishda mustaqillik		
6. Xodimlar ko'nikmalarini baholashda mustaqillik		
E2.4- Tog' hududlarida amalga oshiriladigan qidiruv-qutqaruv ishlarini boshqarish va jarayonda ishtirok etish	E2.01.4- Favqulodda holat sodir bo'lgan tog' hududiga tezkor yetib borish va qidiruv-qutqaruv ishlarini muvofiqlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Favqulodda vaziyat haqida tezkor ma'lumot olish va vaziyatni baholash
		2. Hodisa joyiga xavfsiz va tez yetib borish
		3. Qutqaruv guruhlariga aniq vazifalarni berish va ularni nazorat qilish
		4. Favqulodda vaziyatda bevosita qutqaruv ishlarida ishtirok etish
		5. Zararlangan hududni tozalash va xavfsiz holatga keltirish ishlarini tashkil etish
		Ko'nikmalar:
		Favqulodda vaziyat haqidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan aniqlash
Vaziyat joyiga yetib borganda favqulodda holatning tabiatini va darajasini tez aniqlash		

		Qutqaruv guruhlariga vazifalarni samarali taqsimlash
		Favqulodda vaziyatdagi boshqa xizmatlar va tashkilotlar bilan tezkor aloqa o'rnatish
		Bilimlar:
		Tog' sharoiti va iqlim xususiyatlari, geografik va topografik o'ziga xos xususiyatlari
		Tog'da harakat qilishning maxsus qoidalari va Tog'da harakatlanish qiyinchiliklari
		Qidiruvda qo'llaniladigan texnik vositalar, aloqa va navigatsiya qurilmalari
		Qutqarish texnikasi va jihozlari, ularni xavfsiz qo'llash qoidalari
		Jamoaviy ishni tashkil etish, jamoani boshqarish, yetakchilik va muttasil rahbarlik prinsiplari
		Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va sanoat xavfsizligiga oid normativ hujjatlar va qoidalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Jabrlanganlarning soni, holati va ehtiyojlarini aniqlash
		2. Xavf-xatarlarni belgilash va ulardan saqlanish choralarini ko'rish
		3. Jabrlanganlarni xavfli zonalardan tez va xavfsiz chiqarish
		4. Qutqarish jarayonida og'ir holatdagi shaxslarga alohida e'tibor qaratish
		5. Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan vositalarni tayyorlash
		6. Jabrlanganlarni tez va xavfsiz evakuatsiya qilishni tashkil etish
		Ko'nikmalar:
		Qutqaruv ishlarini tashkil etish va boshqarish
		Jabrlanganlarni zavolda qolgan, yong'in, suv toshqini, vayronalar va boshqa xavfli sharoitlarda insonlarni chiqarish, qutqarish
		Jamoa a'zolari, tibbiy xodimlar va boshqa xizmatlar bilan tezkor aloqa o'rnatish
		Og'ir sharoitlarda xotirjamlikni saqlash
		Bilimlar:
		Jabrlanganlarni qidirish va aniqlash usullari
		Favqulodda vaziyatlarda xavfsiz hududga evakuatsiya tartibi
		Jabrlanuvchilarga birinchi yordam ko'rsatish asosiy qoidalari va jarayonlari
		Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlash va xavf-xatarlarni kamaytirish usullari
	E2.02.4- Jabrlanganlarni aniqlash, qutqarish, xavfsiz joyga olib chiqish hamda birinchi yordam ko'rsatilishini tashkil etish	

		Qutqaruv jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalar va vositalarning funksiyalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Vaziyatni tez va to'g'ri baholash, xavflarni aniqlash, ishlar ketma-ketligini belgilash bo'yicha mustaqillik
		2. Guruh shaxsiy tarkibining a'zolarining hayoti va sog'lig'i uchun javobgarlik
		3. Tezkor tibbiy yordamni tashkil etish, evakuatsiyani to'g'ri va xavfsiz amalga oshirish bo'yicha javobgarlik
		4. Murakkab va tez o'zgaruvchan tog' sharoitida mustaqil ravishda qaror chiqarish
		5. Ob-havo, relyef va xavf darajasidan kelib chiqib qidiruv-qutqaruv usullarini mustaqil belgilash
		7. Yuqoridan ko'rsatma kutmasdan, odamlar hayotini saqlab qolishga qaratilgan choralarni ko'rish bo'yicha mustaqillik
E3.4- Tog' qutqaruv ishlarini bajarishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash		E3.01.4- Guruh shaxsiy tarkibi tomonidan texnika va mehnat xavfsizligi talablariga amal qilinishini nazorat qilish
	1. Guruh shaxsiy tarkibiga texnika xavfsizligi qoidalari va qutqaruv uskunalaridan to'g'ri foydalanish usullarini nazorat qilish	
	2. Qutqaruv uskunalari va jihozlarining texnik holatini tekshirish	
	3. Qutqaruv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik xavflarni o'z vaqtida aniqlash	
	4. Qutqaruv joyida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni o'tkazish	
	Ko'nikmalar:	
	Qutqaruv ishlarida ishlatiladigan har bir uskuna, texnika va qurilmaning xavfsiz foydalanish qoidalarini bilib, ulardan to'g'ri foydalanishni amalda ko'rsatish	
	Guruh a'zolarining texnika va mehnat xavfsizligi qoidalariga amal qilayotganini kuzatish va tekshirish	
	Xavfsizlik buzilishlarini vaqtida aniqlash va tuzatish choralarni ko'rish	
	Texnika nosozligi yoki xavfli holat yuzaga kelganda shoshilmay, hamma jihatlarni hisobga olgan holda harakat qilish	
	Bilimlar:	
	Qutqaruv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar va ularning oldini olish usullari	
	Guruh shaxsiy tarkibining xavfsiz ish faoliyatini tashkil etish prinsiplari	
Birinchi yordam va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish qoidalari		
Shaxsiy himoya vositalari turlari, ulardan to'g'ri foydalanish qoidalari		

		Qutqaruvchilarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash va ularning to'g'ri ishlatilishini nazorat qilish tartiblari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tog'da qutqaruv guruhi boshlig'i guruh a'zolarining texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash uchun shaxsan mas'ullik
		2. Har qanday xavfsizlik qoidabuzarliklari yoki nosozliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oqibatlari uchun javobgarlik
		3. Qutqaruv jarayonida texnik xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlarni o'z vaqtida va aniq belgilash
		4. Qutqaruv jarayonida boshqaruvchi sifatida favqulodda vaziyatlarda mustaqil va tezkor qarorlar qabul qilish
		5. Yuqori rahbariyat ko'rsatmasini kutmasdan, shaxsiy tarkib xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qarorlar qabul qilish
		6. Qutqaruv jarayonida yuzaga kelgan texnik nosozliklar va xavfsizlik qoidalari buzilishini mustaqil ravishda hal qilish
Texnik va/yoki texnologik talab:	<p>Qutqaruv uskunalari va jihozlarning texnik xususiyatlari: Qutqaruv ishlarida ishlatiladigan turli uskunalarining konstruksiyasi, ishlash tartibi va ularning chegaralangan imkoniyatlari; Uskunalarining ishlash doirasi, quvvatlari, harakat mexanizmlari va xavfsizlik funksiyalari. Texnika va texnologiyaning xavfsizlik talablari: texnik jihozlardan xavfsiz foydalanish, ularni to'g'ri o'rnatish, tekshirish va xizmat ko'rsatish.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qutqaruv alpinistlik uskunalari va asboblari. 2. Navigatsiya va aloqa qurilmalari- GPS navigatsiya qurilmalari, Radiostansiyalar va boshqa radio aloqa vositalari, signalizatsiya va favqulodda aloqa tizimlari. 3. Havodan kuzatuv texnologiyalari- Dronlar va beshpilotniklar, havodan fotosurat va video tasvirga olish vositalari. 4. Transport vositalari-tog' sharoitiga mos avtotransportlar (4x4 mashina, kvadrosikllar). 	

Kasbning nomi:	Radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza guruhi boshlig'i	
Mashg'ulot nomining kodi:	21331	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	<p>Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish sohasida kamida 1-3 yillik amaliy tajriba talab etiladi. Bu nomzod favqulodda vaziyatlarni oldini olish, bartaraf etish va qutqaruv ishlarini olib borishda bevosita ishtirok etishi kerak.</p> <p>Radiatsion va kimyoviy xavfsizlik sohasida amaliy tajriba.</p> <p>Maxsus o'quv kurslarini tamomlaganlik to'g'risida guvohnoma (agar talab etilsa)</p>	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan bo'lishi, erkak, yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik va chidamli, jismonan sog'lom va harbiy xizmatni o'tagan bo'lishi talab qilinadi.</p> <p>Belgilangan qoidalarga rioya qilish.</p> <p>Mehnat intizomi va xizmatga sadoqat.</p> <p>Mas'uliyatli bo'lish.</p> <p>Qiyin, xavfli va uzoq muddatli qutqaruv ishlarida faol ishtirok etish.</p> <p>Qutqaruv texnikasi va vositalari bo'yicha bilimga ega bo'lish.</p> <p>Favqulodda vaziyatlarning turlari va ularni bartaraf etish taktikalarini bilish.</p> <p>Jismoniy tayyorgarlik va chidamlilik ko'nikmalariga ega bo'lish.</p> <p>Notinch va xavfli sharoitlarda ham to'g'ri fikr yuritib, muammoni hal qilish.</p> <p>Sog'liq bo'yicha talablarga javob berishi (tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi).</p> <p>Boshqaruv ko'nikmalari va jamoa bilan ishlash tajribasi.</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish qoidalarini bilish.</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	O'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

		4	Qutqaruv guruhi boshlig'i
		4	Qidiruv-qutqaruv guruhi boshlig'i
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
<p>F1.6- Guruh shaxsiy tarkibining radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza bo'yicha kasbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida bilim va ko'nikmalarini oshirish</p>	<p>F1.01.6- Guruh shaxsiy tarkibini radiatsion, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlash, ulardan himoyalash va tezkor harakat qilish uslublari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida muntazam ravishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish</p>	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Radiatsion, kimyoviy va biologik tahdidlar turlari, ularning ta'sir mexanizmlari va oqibatlari haqida mashg'ulotlar o'tkazish	
		2. Shaxsiy himoya vositalari, maxsus asbob-uskunalaridan foydalanish, zararlanish alomatlarini aniqlash, evakuatsiya va izolyatsiya (lokalizatsiya) qoidalarini o'rgatish	
		3. Himoya vositalaridan to'g'ri va xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish	
		4. O'lchash asboblari dozimetr, gazoanalizator, biologik xavf detektorlari bilan ishlashni o'rgatish	
		5. Zararlangan hududda harakat qilish va birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy mashqlar o'tkazish	
		Ko'nikmalar:	
		Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishning samarali uslublarini qo'llash	
		Murakkab radiatsion, kimyoviy va biologik tushunchalarni sodda va aniq tarzda tushuntirish	
		Zararli omillar manbasini aniqlash, monitoring va baholash usullarini qo'llash	
		Dozimetr, gaz analizator, detektor, filtr qurilmalari bilan ishlash	
		Mashqlar jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlarni tezkor baholash hamda ularga to'g'ri va samarali javob choralarini qo'llash	
		Bilimlar:	
		Radiatsion muhofaza sohasidagi asosiy tushunchalar, xavf omillari va himoyalash usullari	
Kimyoviy muhofaza sohasida xavfli kimyoviy moddalarning xususiyatlari va ulardan himoyalash choralari			
Tibbiy-biologik muhofaza sohasida biologik xavflar, ularning inson salomatligiga ta'siri va himoyalash usullari			
Radiatsion, kimyoviy va biologik xavflarning manbalari hamda ularning tarqalishini oldini olish usullari			

		<p>Favqulodda vaziyatlar sohasiga oid O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, vakolatli tashkilotlarning buyruqlari, me'yorlari va talablari</p> <p>Radiatsion, kimyoviy va biologik nazoratda qo'llaniladigan asbob-uskunalaridan foydalanish hamda ularning texnik holatini tekshirish tartibi</p> <p>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida zaharli moddalarning ekologik ta'sirini baholash va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish uslublari</p>
	<p>F1.02.6- Guruh shaxsiy tarkibiga Radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyatlarda texnika, uskunalar va asbob-anjomlardan xavfsiz foydalanishni o'rgatish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish 2. Texnik xavfsizlik va mehnat muhofazasi bo'yicha instruktaj o'tkazish 3. Real vaziyatlarda radiatsiya o'lchov asbobidan foydalanish, himoya vositalarini to'g'ri kiyishni ta'minlash va harakatlanish 4. ZKM tarqalganida gaz analizator bilan xavf aniqlash, himoya vositalarini to'g'ri kiyishni ta'minlash va harakatlanish 5. Biologik tahdid paytida himoya vositalarini to'g'ri kiyishni ta'minlash va harakatlanish 6. Mashg'ulot natijalari bo'yicha ish jarayonini tahlil qilish, guruhdagi malaka darajasini baholash <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Dozimetrlar, gazoanalizatorlar, biologik tahlil uskunalari kabi qurilmalardan to'g'ri va xavfsiz foydalanish</p> <p>Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya ishlari uchun maxsus uskunalarni qo'llash</p> <p>Guruh shaxsiy tarkibini o'qitish, treninglar va amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Radiatsiya turlari, ularning manbalari va ta'sir mexanizmi</p> <p>Kimyoviy moddalarning turlari, ularning zararli ta'siri va tarqalish yo'llari</p> <p>Radiatsion, kimyoviy va biologik muhitda foydalaniladigan maxsus texnika va uskunalarni tuzilishi va ishlash prinsiplari</p> <p>Radiatsion, kimyoviy va biologik holatlarda texnik uskunalaridan xavfsiz foydalanish usullari</p> <p>Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya ishlarini o'tkazish usullari</p> <p>Radiatsiya, kimyoviy va biologik xavflarni nazorat qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlari</p>

	<p>Mas'uliyat mustaqillik:</p>	<p>1. Mashg'ulotlar davomida shaxsiy tarkibning hayoti va sog'lig'i uchun javobgarlik</p> <p>2. RKB vaziyatlarda ishlatiladigan texnika, uskunalar va asbob-anjomlardan to'g'ri va xavfsiz foydalanilishini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat</p> <p>3. Mashg'ulotlarda amaldagi texnika xavfsizligi va RKB himoya qoidalarining qat'iy bajarilishini ta'minlash bo'yicha mas'uliyat</p> <p>4. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarning shakli, tartibi va davomiyligini mustaqil belgilash</p> <p>5. RKB vaziyatida qo'shimcha xavfsizlik choralarini mustaqil joriy etish</p> <p>6. Favqulodda vaziyatlarda texnik uskunalaridan foydalanish jarayonida muammolar paydo bo'lganda tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish</p>
<p>F2.6- Zararlangan joylarda tezkor qutqaruv va zararsizlantirish ishlarini tashkil etish va bevosita ishtirok etish</p>	<p>F2.01.6- Zararlangan hududlarda radiatsion, kimyoviy va biologik ta'sirni baholash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Zararlangan hududda tezkor razvedka ishlarini tashkil etish va o'tkazish</p> <p>2. Hududning ifloslanish darajasini aniqlash maqsadida maxsus asbob-uskunalar yordamida o'lchov ishlarini amalga oshirish</p> <p>3. Olingan ma'lumotlar asosida zararlangan (zaharlangan) hududning toifasi va xavf darajasini belgilash</p> <p>4. Qutqaruv guruhlarini zararlanish turi va darajasiga qarab tashkil etish</p> <p>5. Zararlangan hududda ishlash tartibini belgilash (kirish, chiqish, harakatlanish yo'nalishlari)</p> <p>6. Maxsus himoya vositalaridan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish</p> <p>7. Zararlangan obyektlarni va asbob-uskunalarini dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya qilish ishlarini nazorat qilish</p> <p>8. Guruh shaxsiy tarkibining xavfsizligini ta'minlash</p> <p>9. Himoya vositalaridan foydalanish va texnik xavfsizlik qoidalarini tushuntirish</p> <p>10. Radioaktiv yoki kimyoviy moddalarning tarqalish yo'nalishlari va ta'sir ko'rsatish radiusini aniqlash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Radioaktiv, kimyoviy va biologik moddalarning ta'sirini aniqlash va tahlil qilish</p> <p>Dozimetriya, degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfeksiya jarayonlarini baholash</p> <p>Hududning ifloslanish darajasini baholash va xavf toifasini aniqlash</p>

		Himoya vositalarini to'g'ri tanlash va ulardan foydalanishni nazorat qilish
		Qutqaruv va maxsus ish guruhlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish
		Favqulodda vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qilish
		Qulay va xavfsiz yo'llar orqali zararlangan hududda harakatlanishni tashkil etish
		Boshqaruv idoralari bilan ma'lumot almashish va muvofiqlashtiruvni ta'minlash
		Bilimlar:
		Radioaktiv moddalar turlari, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari va inson organizmiga ta'siri
		Kimyoviy moddalarning sinfi, ta'sir mexanizmi va xavflilik darajalari
		Biologik xavfli agentlar (bakteriya, virus, toksinlar) tasnifi, patogenlik darajasi va tarqalish mexanizmlari
		Dozimetrik nazorat va radiatsiyani aniqlash usullari
		Kimyoviy tahlil metodlari
		Biologik tahlil usullari (tezkor testlar, laboratoriya nazorat vositalari)
		Shaxsiy himoya vositalari (respiratorlar, himoya kostyumlari, qo'lqoplar) turlari va ularning to'g'ri qo'llanilishi
		Zararlangan hududlarda harakatlanish va faoliyat olib borish taktikasi
		Qutqaruv ishlari, evakuatsiya va lokalizatsiya ishlarini tashkil etish tamoyillari
		Ifloslanish darajasini baholash mezonlari (sanitar normalar, dozalar)
		Xavf darajasini aniqlash va prognozlash asoslari
		Mehnat harakatlari:
	F2.02.6- Qutqaruv va zararsizlantirish ishlarini bevosita boshqarish va muvofiqlashtirish	1. Favqulodda vaziyat yuz bergan hududga kelib, hududning ifloslanish darajasini baholash
		2. Radioaktiv, kimyoviy yoki biologik tahdidning turini va tarqalish ehtimolini aniqlash
		3. Qutqaruv va zararsizlantirish ishlari uchun samarali qarorlarni tez va asosli ravishda qabul qilish
		4. Qutqaruv va zararsizlantirish bo'yicha guruhlarini tuzish, ularga aniq vazifalar yuklash
		5. Har bir guruh a'zosining vazifasini belgilash va mas'uliyatni taqsimlash

		6. Ishchi guruhlarining harakatlanish marshrutini va vazifalar bajarish to'g'risidagi yo'riqnomalarni berish
		7. Himoya vositalarining to'g'ri qo'llanilishini tekshirish va xavfsiz mehnat shartlarini ta'minlash
		8. Hodisaning dinamikasiga qarab taktikani o'zgartirish va qo'shimcha kuchlarni jalb qilish
		9. Hududdagi zararlanish darajasini aniqlash maqsadida dozimetriya, kimyoviy va biologik nazorat ishlarini tashkil etish
		10. Ifloslangan obyektlar, uskunalar va yer maydonlarini zararsizlantirish choralarini ko'rish
		Ko'nikmalar:
		Qutqaruv va zararsizlantirish ishlarini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish
		Bir vaqtning o'zida bir necha ishchi guruhlarini boshqarish va muvofiqlashtirish
		Mavjud vaziyatni tezda baholash va tahlil qilish
		Radiatsion, kimyoviy va biologik tahdid darajasini asbob-uskunalar yordamida baholash
		Shaxsiy va guruh a'zolarining himoya vositalaridan to'g'ri foydalanishini nazorat qilish
		Dezaktivatsiya, degazatsiya va dezinfeksiya ishlarini tashkil qilish va baholash
		Guruh a'zolarini o'qitish, yo'riqnoma berish va ruhlantirish
		Murakkab sharoitlarda jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish
		Bilimlar:
		Radioaktiv, kimyoviy va biologik moddalarning turlari, ularning xususiyatlari va insonga hamda muhitga ta'siri
		Turli xavfli moddalarning tarqalish yo'llari va ularning zararlash sohalari
		Tahdid turiga qarab qo'llaniladigan zararsizlantirish usullari
		Qutqaruv va zararsizlantirish ishlarining taktikasi va texnologiyasi
		Nazorat-o'lchov vositalari va laboratoriya tahlil usullari
		Radiatsion, kimyoviy va biologik tahdidlarga qarshi shaxsiy himoya vositalari turlari va ulardan foydalanish qoidalari
		Favqulodda vaziyatlarda rahbarlik va muvofiqlashtirish asoslari
		O'zbekiston Respublikasining favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi, radiatsion va

		kimyoviy xavfsizlik, sanitariya va epidemiologiya sohalaridagi amaldagi qonunchiligi
F3.6- Radiatsion, kimyoviy va tibbiy-biologik xavflarni bartaraf etishda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.	F3.01.6- Xavf manbalarini aniqlash va tahlil qilishda tegishli davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish.	1. Qutqaruv va zararsizlantirish ishlarida shaxsiy tarkibning hayoti va sog'lig'i uchun to'liq javobgar bo'lish
		2. Vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash
		3. Texnika, asbob-anjom va himoya vositalarini to'g'ri va samarali ishlatishni nazorat qilish
		4. Ishlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish usullarini mustaqil tanlash
		5. Favqulodda vaziyatlarda yuqori rahbariyat ko'rsatmasini kutmasdan tezkor va asosli qarorlar chiqarish
		6. Shaxsiy tarkib, texnika va vositalarni vaziyatga mos ravishda mustaqil taqsimlash
		Mehnat harakatlari:
		1. Voqea joyiga yetib borgandan so'ng atrof muhitdagi ehtimoliy xavf manbalarini ko'zdan kechirish
		2. Xavf manbasining (radioaktiv, kimyoviy yoki biologik) tarqalish yo'llarini texnik tahlil asosida aniqlash
		3. Aniqlangan ma'lumotlarni tegishli tashkilotlarga yetkazish uchun hujjatlashtirish
		4. Sanitariya-epidemiologiya xizmati, Ekologiya qo'mitasi, Gidrometeorologiya markazi, Sog'liqni saqlash tizimi, Ichki ishlar organlari kabi idoralar bilan doimiy aloqa o'rnatish
		5. Tahlil natijalarini va mavjud xavf darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor yetkazish
		6. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hududda radiatsion, kimyoviy va biologik monitoring ishlarini tashkil etish
7. Hududdagi vaziyat to'g'risidagi axborotni yig'ish va tahlil qilish uchun markazlashgan ma'lumot bazasini tashkil etish		
Ko'nikmalar:		
Radiatsion, kimyoviy va biologik moddalarni aniqlash va ularning xavf darajasini baholash		
Xavf manbalari xususiyati va tarqalish yo'llarini aniqlashda ilmiy va texnik ko'nikmalarga ega bo'lish		
Hamkor tashkilotlar bilan ma'lumot almashish va umumiy harakat rejalarini ishlab chiqish		
Xavf manbalarini aniqlash va tahlil qilish ishlarini boshqarish va muvofiqlashtirish		

		<p>Favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va faoliyatni samarali tashkil etish</p> <p>Mutaxassislar guruhi va idoralar orasida axborot almashish va texnik vositalardan samarali foydalanish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Radiatsion, kimyoviy va biologik xavflar bilan bog'liq amaldagi qonunchiligi</p> <p>Radiatsiya, kimyoviy va biologik omillar va ularning inson va atrof-muhitga ta'siri</p> <p>Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish qoidalari</p> <p>Turli zararlanish manbalari va ularning tarqalish mexanizmlari</p> <p>Radiatsion, kimyoviy va biologik zararlanishni bartaraf etish usullari va texnologiyalari</p> <p>Radiatsion, kimyoviy va biologik xavflarni aniqlashda qo'llaniladigan o'lchov vositalari va laboratoriya texnikalari</p> <p>Tashkilotlar o'rtasida muvofiqlashtirish, axborot almashish va hamkorlik mexanizmlari</p>
	<p>F3.02.6- Hamkor tashkilotlar resurslari va imkoniyatlaridan foydalangan holda murakkab vaziyatlarni samarali bartaraf etishni muvofiqlashtirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Vujudga kelgan favqulodda vaziyatga mos ravishda turli tashkilotlarning vakolatlarini hisobga olgan holda harakat rejasini tuzish 2. Har bir tashkilotning mavjud resurslarini hisobga olish va ularni maqsadli yo'naltirish 3. Birlashgan kuchlarni (qutqaruvchilar, texnikalar, shifokorlar va h.k.) hudud bo'yicha samarali joylashtirish va harakat yo'nalishlarini belgilash 4. Vaqtincha shtab yoki muvofiqlashtirish markazini tashkil etish va unda barcha hamkor tashkilotlar vakillarini jalb qilish 5. Shtab orqali tezkor axborot almashish, qaror qabul qilish va amaliyotni nazorat qilish jarayonini yo'lga qo'yish 6. Nazorat va tahlil natijalari, zararlanish darajasi, resurslar holati va faoliyatning borishi haqida axborot aylanmasini ta'minlash 7. Zararsizlantirishdan keyin hududni tiklash, sanitariya, tibbiy xizmat ko'rsatish, aholiga yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etishda hamkorlarni jalb etish 8. Har bir hamkor tashkilot bilan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha axborot to'plash <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Turli tashkilotlar o'rtasida faoliyatlarni muvofiqlashtirish va rahbarlik qilish</p>

		<p>Har bir tashkilotning vazifalari, vakolatlari va resurs salohiyatini to'g'ri baholash va muvofiqlashtirish</p> <p>Davlat tashkilotlari bilan axborot almashish va hamkorlikni yo'lga qo'yish</p> <p>Har bir hamkor tashkilotning moddiy-texnik va inson resurslarini baholay olish</p> <p>Mavjud resurslarni maqsadli taqsimlash va foydalanishni ta'minlash</p> <p>Murakkab favqulodda vaziyatlarga mos keladigan umumiy harakat rejasini ishlab chiqish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Radiatsion, kimyoviy va biologik xavflar bilan bog'liq vaziyatlarning xususiyatlari, tarqalish mexanizmlari va ta'sir doiralari</p> <p>Murakkab favqulodda vaziyatlarni boshqarishning uslublari va bosqichlari</p> <p>Hamkor tashkilotlarning (FVV, SSV, Sanepidqo'm, IIV, Vetqo'm, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi va boshqalar) funksiyalari, huquqiy vakolatlari va harakat sohalari</p> <p>Hamkor tashkilotlar o'rtasida axborot almashinuvi, qaror qabul qilish va resurslarni taqsimlash jarayonlari</p> <p>Radiatsion, kimyoviy va biologik xavflar, shu jumladan hamkor tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi qonunlar, farmonlar, qarorlar va normalari</p> <p>Harakat natijalarini baholash va tuzatuvchi choralar ko'rish tartiblari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Murakkab vaziyatni bartaraf etish bo'yicha barcha ishlar natijasi uchun javobgarlik</p> <p>2. Hamkor tashkilotlarning texnika, asbob-anjom va inson resurslarini samarali va to'g'ri ishlatishni ta'minlash</p> <p>3. Shaxsiy tarkib va boshqa tashkilot xodimlari hayoti va sog'lig'i xavfsizligini nazorat qilish</p> <p>4. Hamkor tashkilotlar imkoniyatlarini vaziyat talabiga qarab mustaqil taqsimlash va boshqarish</p> <p>5. Vaziyatga mos ravishda ish rejasini va taktikasini mustaqil belgilash</p> <p>6. Xavf oshganda yuqori rahbariyat ko'rsatmasini kutmasdan tezkor choralar ko'rish</p>
	Texnik va/yoki texnologik talab:	<p>radiatsiya darajasini o'lchash asboblari (dozimetr, radiometr);</p> <p>kimyoviy moddalarning mavjudligini aniqlash qurilmalari (gaz analizatorlari, kimyoviy detektorlar);</p>

	<p>biologik xavflarni aniqlash uchun laboratoriya yoki ekspres test vositalari; himoya vositalari (gaz niqobi, respiratorlar, himoya kostyumlari, qo'lqop va ko'zoynaklar); dezinfeksiya va zararsizlantirish uskunalari (purkagichlar, maxsus eritmalar); radiatsion, kimyoviy va biologik nazorat uchun portativ monitoring qurilmalari; maxsus aloqa vositalari (radiostansiyalar); birinchi tibbiy yordam ko'rsatish jihozlari; maxsus transport va qutqaruv texnikasi; laboratoriya va nazorat-o'lchov uskunalari; radiatsiyani aniqlash uskunalarning turlari, tuzilishi va ishlash prinsiplari; kimyoviy moddalarni aniqlash qurilmalari; radioaktiv, kimyoviy va biologik ifloslanish obyektlarini zararsizlantirish usullari; maxsus tozalash uskunalari va moddalardan foydalanish texnologiyasi; himoya vositalari va maxsus kiyimlar; transport va maxsus texnika vositalari.</p>
--	---

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 24-mart 2026-yildagi 53-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0125-son xulosa, 03.04.2026-y
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 25.03.2026-y
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	23.03.2031-y

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi

(tashkilot nomi)

Bosh boshqarma boshlig'i

Muxitdinov M. Y

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxonalar) to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Ta'lim jarayonini tashkil etish boshqarmasi boshlig'i	Kupaysinov Ilxomjon Bozorboevich
2	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Xizmat va jangovar tayyorgarligini tashkil etish boshqarmasi boshlig'i	Islamov Sardor Iskanderovich
3	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Tashkiliy shtat bo'limi boshlig'i	Mirbabaev Baxtiyor Tairovich
4	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akadyemiyasi boshlig'ining o'rinbosari	Jafarov Axrorjon Akmalovich
5	Toshkyent shahar Favqulodda vaziyatlar bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari	Razikov Dilshod Baxtiyorovich
6	Favqulodda vaziyatlar vazirligi Kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi bosh mutaxassisi Tarmoq kengash kotibi	Bekmuradov Shodiyor Kenjayevich



**FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA
BARTARAF ETISH SOHASIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TARMOQ KENGASHI**

KASBIY STANDART
FAVQULODDA VAZIYATLARDA QUTQARUV
ISHLARINI BOSHQARISH